# O‘ZBEKISTON YOSHLARI.
# (GAP. GAP BO‘LAKLARI, ULARNING IFODALANISHI)



**Fan-** O‘zbek tili
**O‘qituvchi-** Mamarajabova Iroda Fayzullayevna

## REJA:

- 1. O’zbekiston yoshlari
- 2. Gap.
- 3. Gap bo’laklari



Mamlakatimizda har tomonlama yetuk va barkamol shaxslarni tayyorlash borasidagi ishlar bugun o‘z samarasini bermoqda. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining jadal rivojlanishi hamda ma’naviy qadriyatlarning o‘zgarishi bilan bog‘liqdir.



Hozirgi kunda davr sadosi bo‘lgan ommaviy axborot vositalarining hayotimizga beqiyos ta’sirini har sohada kuzatishimiz mumkin. Bejizga XXI asr global axborot asri deb atalmagan.



Televideniye kunlik axborotga ega boʻlishimizda asosiy manbalardan hisoblanadi. Hozirgi kunda koʻplab dasturlarda yoshlarga oid koʻrsatuvlar va eshittirishlar uzatilyapti.





Hamma sohada yoshlar uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. Yoshlar o‘z iqtidorlari bilan turli sohalarda faol ishtirok etmoqda. Yoshlik umrning eng g‘animat davri.









Unda qo‘lga kiritilgan ilm va hunar umr davomida halol va baxtli yashash uchun xizmat qiladi. Hozir mamlakatimiz yoshlari internet va mobil vositalaridan keng foydalanmoqda.







Ammo bu yo‘nalishda yolg‘on axborotga ishonib qolayotgan tengdoshlarimiz ham yo‘q emas. Tengdoshlarimizni bunday salbiy illatlar, ommaviy madaniyat ta’siridan asrash uchun, ular ko‘p kitob o‘qishlari lozim.






# LUG'AT

| **yetuk – зрелый, полноценный** | **bejiz – неспроста, не зря** |
|---|---|
| shaxs – личность | manba – источник |
| qadriyat – ценность | soha – отрасль |
| davr – эпоха | faol – активный |
| ta'sir – влияние | |

**Bilib oling!**



Gap tugallangan fikrni ifodalaydi. Gap ohang jihatdan tugallangan bo'lishi kerak. Masalan: Oltin kuz qanday chiroyli! Maktablarda darslar boshlandi. Gap hosil qilish uchun so'z va so'z birikmalarini grammatik jihatdan bog'lash kerak. Masalan: Xatni qalam bilan yozdi. Gapida -ni, bilan bog'lovchi vositalar hisoblanadi. Kuz. Hamma yoq oltin rangga kirgan. Bu gapdagi kuz so'zi ham tugallangan ohang bilan aytilgani uchun gap hisoblanadi.



# GAP BO‘LAKLARI QANDAY SO‘ROQLARGA JAVOB BERISHINI ESLAB QOLING!

| Gap bo‘laklari | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Bosh bo‘laklar | | Ikkinchi darajali bo‘laklar | | |
| Ega | Kesim | Aniqlovchi | Hol | To‘ldiruvchi |
| Kim?<br>Nima?<br>Qayer? | Nima<br>qildi?<br>Nima<br>qilyapti?<br>Nima<br>qiladi? | Qanday?<br>Qanaqa?<br>Qaysi?<br>Kimning?<br>Nimaning? | Qayerda?<br>Qayerdan<br>? Qachon?<br>Nima<br>uchun?<br>Qayerga?<br>Qanday? | Kimni?<br>Nimani?<br>Kimda?<br>Nimada?<br>Kimdan?<br>Nimadan? |

**UYGA VAZIFA!**

QO‘SHIMCHA MA’LUMOTLARDAN FOYDALANIB, TENGDOSHLARINGIZNING YUTUQLARI HAQIDA MATN TUZING.





# E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!